JADID MAKTABLARIDA O‘QUV-USLUBIY EVOLYUTSIYA VA PRAGMATIK TA’LIM:
NAZARIY ASOSLAR VA MANBASHUNOSLIK TAHLILI
(ABDULLA AVLONIY YODGORLIK MUZEYI MATERIALLARI VA ILK DARSLIKLAR ASOSIDA)

Mo‘minov Abbosbek Soyibjon o‘g‘li,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
yetakchi mutaxassisi
mominovabbosbek998@gmail.com
ORC ID: 0009-0003-8174-7500

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turkistondagi “usuli jadid” maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonlarining shakllanishi, o‘quv-uslubiy vositalarning rivojlanishi hamda amaliyotga yo‘naltirilgan (pragmatik) yondashuvlar Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi ashyolari va davr darsliklari (A. Fitrat, X. Sa’id, Sh. Rahimiy, A. Avloniy asarlari) asosida ilmiy-tahliliy o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘quv-uslubiy evolyutsiya qat’iy mezonlar (mazmun, o‘qitish metodikasi, amaliy topshiriqlar) bo‘yicha qiyosiy tahlil qilingan. An’anaviy ta’lim muassasalarining tarixiy holatiga xolis baho berilgan holda, jadid pedagogikasining mantiqiy tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga o‘tish bosqichlari Abdurauf Fitratning “Munozara” asaridagi dalillar yordamida ochib beriladi. Tarixiy obektivlikni ta’minlash maqsadida 1900–1917-yillardagi milliy jadid ta’limi hamda 1920–1930-yillardagi sovetlashtirish davri chegaralari qat’iy farqlanib, tadqiqotning ilmiy xulosalari va cheklovlari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, usuli jadid, pragmatizm, o‘quv-uslubiy evolyutsiya, kognitiv yondashuv, didaktik vositalar, xronologik tahlil, an’anaviy ta’lim, darsliklar qiyosi, ta’lim transformatsiyasi.*

Учебно-методическая эволюция и прагматичное образование в джадидских школах (на основе материалов музея Абдуллы Авлони)

Муминов Аббосбек Сойибжон угли,
Ведущий специалист Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони

Аннотация: *В данной статье на основе экспонатов мемориального музея Абдуллы Авлони и учебников того периода (труды А. Фитрата, Х. Саида, Ш. Рахими, А. Авлони) проводится научно-аналитическое изучение формирования учебно-воспитательных процессов, развития учебно-методических средств и практически ориентированных (прагматических) подходов в новометодных (“усули джадид”) школах Туркестана. В исследовании проведен сравнительный анализ учебно-методической эволюции по строгим критериям (содержание, методика обучения, практические задания). Наряду с объективной оценкой исторического состояния традиционных образовательных учреждений, с помощью аргументов из произведения Абдурауфа Фитрата “Мунозара” раскрываются этапы перехода джадидской педагогики к формированию логического мышления и практических навыков. Применение музейных артефактов (специальная парта, граммофон) в педагогических целях научно обосновывается исследованиями профессора У. Долимова. В целях обеспечения исторической объективности строго разграничены периоды национального джадид-*

ского образования 1900–1917 годов и советизации 1920–1930 годов, указаны научные выводы и ограничения исследования.

Ключевые слова: *джадидизм, усули джадид (новометодная школа), прагматизм, учебно-методическая эволюция, когнитивный подход, дидактические средства, хронологический анализ, традиционное образование, сравнение учебников, трансформация образования.*

Educational-methodological evolution and pragmatic education in Jadid schools (based on the materials of the Abdulla Avloni museum)

Muminov Abbosbek Soyibjon ugli,
Leading Specialist of the A. Avloni National Institute of Pedagogical Excellence

Abstract: *This article provides a scientific and analytical study of the formation of educational processes, the development of educational and methodological tools, and practice-oriented (pragmatic) approaches in the "Usuli Jadid" schools of Turkestan, based on the artifacts of the Abdulla Avloni Memorial Museum and textbooks of that period (works of A. Fitrat, K. Said, Sh. Rahimi, A. Avloni). The study conducts a comparative analysis of the educational and methodological evolution according to strict criteria (content, teaching methodology, practical tasks). While providing an objective assessment of the historical state of traditional educational institutions, the stages of transition of Jadid pedagogy to the formation of logical thinking and practical skills are revealed using arguments from Abdurauf Fitrat's work "Munozara". The use of museum artifacts (a special desk, gramophone) for pedagogical purposes is scientifically substantiated by the research of Professor U. Dolimov. To ensure historical objectivity, the boundaries between the period of national Jadid education of 1900–1917 and the period of Sovietization of 1920–1930 are strictly differentiated, and the scientific conclusions and limitations of the study are indicated.*

Keywords: *Jadidism, usuli jadid (new method school), pragmatism, educational and methodological evolution, cognitive approach, didactic tools, chronological analysis, traditional education, textbook comparison, educational transformation.*

Muammoning qo'yilishi va dolzarbligi. XX asr boshlarida Turkistonda maydonga chiqqan jadidchilik harakati tarixshunoslikda asosan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va matbuot sohasidagi oqim sifatida keng tadqiq etilgan. Biroq, mazkur harakatning eng fundamental amaliy negizi bo'lgan ta'limiy islohotlar, xususan, "yangi usul" maktablarining ichki didaktik jarayonlari, o'quv-metodik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi va darsliklar mazmuni birlamchi arxiv hujjatlari hamda muzey ashyolari yordamida kompleks ilmiy-tanqidiy tahlilga tortilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi jadid maktablaridagi o'quv-uslubiy evolyutsiya va pragmatik ta'lim yondashuvlarini falsafiy-pedagogik jihatdan asoslash hamda ularni Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi fondida saqlanayotgan darsliklar, o'quv jihozlari tahlili orqali obektiv dalillashdan iborat.

Maqolada ilgari surilayotgan "pragmatik ta'lim" tushunchasining falsafiy-pedagogik mazmuni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Charlz Pirs, Uilyam Jeyms va ayniqsa, amerikalik faylasuf Jon Dyui (John Dewey) tomonidan ishlab chiqilgan pragmatizm (yunoncha *pragma* – ish, harakat, amaliyot, foyda) nazariyasiga borib taqaladi. Jon Dyuining ta'lim falsafasiga ko'ra, maktab o'quvchini shunchaki passiv axborot qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki "amaliyot orqali o'rganuvchi" (learning by doing), olingan bilimlarini real ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, bozor va ishlab chiqarish munosabatlarida bevosita qo'llay oladigan faol subyekt sifatida tarbiyalashi lozim.

Jadid ziyolilari Turkistonning mustamlaka sharoitida ushbu pragmatik modelni ongli ravishda o‘zlashtirib, maktab ta’limini mavhum va sxolastik qoliplardan qutqarishga, yoshlarni zamonaviy kapitalistik munosabatlarga, iqtisodiyot va huquqqa moslashtirishga harakat qildilar. Maktab dasturlariga savdo-sotiq qoidalari, buxgalteriya, jo‘g‘rofiya va amaliy hisob (arifmetika) fanlarining kiritilishi ana shu nazariy asosning amaliy ifodasidir. Tadqiqotimizda o‘quv-uslubiy evolyutsiya qat’iy mezonlar: a) o‘qitish metodikasi; b) o‘quv mazmuni; c) amaliy topshiriqlar va didaktik yangiliklar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologik obektivlikni ta’minlash maqsadida tarixiy xronologik tamoyilga qat’iy amal qilinib, ta’lim jarayoni ikki mustaqil bosqichga ajratildi:

Birinchi bosqich (1900–1917-yillar) – jadid maktablarining chor mustamlakachiligi sharoitida, ammo nisbatan avtonom tarzda, milliy ma’rifatparvarlar tashabbusi bilan erkin shakllanishi hamda pragmatik ta’lim va sof milliy kognitiv tafakkurning joriy etilish davri.

Ikkinchi bosqich (1920–1930-yillar) – sovet hokimiyati o‘rnatilgach, ta’limning mutlaq davlatlashtirilishi, dasturlarga sinfiy-mafkuraviy yondashuvlarning (quloqlarga, dinga qarshi kurash, majburiy politexnizatsiya) singdirilishi va jadid pedagogikasining sovet tuzumiga murakkab transformatsiya qilinish davri. Bu ikki davrni bir uzluksiz, bir jinsli jarayon sifatida talqin qilish tarixiy xatolik bo‘lib, ular orasidagi g‘oyaviy chegara maqola davomida ochib beriladi.

Jadid maktablari fenomenini ilmiy tahlil qilishda, ulargacha bo‘lgan an’anaviy ta’lim (maktabxona va madrasalar) tizimini faqatgina “ko‘r-ko‘rona yodlash” va “diniy itoatkorlik”ka asoslangan mutlaq salbiy institut sifatida tasvirlash tarixiy voqelikni haddan tashqari soddalashtirish bo‘lur edi. Asrlar davomida Movarounnahr madrasalari islom huquqi (fiqh), mumtoz adabiyot, axloq normalari hamda xattotlik an’analarini saqlab qolishda ulkan intellektual va ijtimoiy missiyani bajargan. Ular matnni chuqur mantiqiy tahlil qilish va tafsir qilish bo‘yicha kuchli metodologik an’analarga ega bo‘lgan intellektual markazlar edi. Biroq, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, fan-texnika inqilobi va yangi iqtisodiy munosabatlar kirib kelgan bir sharoitda an’anaviy ta’lim o‘zining funksional va metodologik inqirozini boshidan kechirdi.

Bu inqirozning asl sabablari va ko‘lami nimada edi? Ushbu savolga ulug‘ mutafakkir Abdurauf Fitrat o‘zining “Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi” (1911) asarida nihoyatda xolis, ichki tanqidiy dalillar bilan javob beradi. Asardagi “Farangi” va “Mudarris” o‘rtasidagi dialog o‘sha davr ta’lim tizimining aniq manzarasini va darsliklar ro‘yxatini ochib beradi. Mudarris madrasadagi 19 yillik o‘quv dasturini shunday sanab o‘tadi:

“Birinchi yili – “Avvali ilm”, “Bidon”. Ikkinchi yili – “Mo‘ziy, Zanjoniy”. Uchinchi yili – “Qofiya”. To‘rtinchi yili – “Sharhi Jomiy”dan “Al-marfu’ot...”. ... To‘qqizinchi yili – “Qutbiy” hoshiyasidan “Va rottabtuhu ala muqaddima” O‘ninchi yili – “Hamdi aqoyid”... ... O‘n sakkizinchi yili – “Mulla Jalol”dan “Yaman vaffaqana”. O‘n to‘qqizinchi yili oxirida – “Sahih Buxoriy”dan “Innamal a’malu bin niyyat”ni, “Tafsiri Bayzoviy”dan “Muavvazatayn” o‘qilib, xatmi tahsil qilinadi” [16, 55-56-b.].

Farangi bu kitoblarning asosan nimalardan iborat ekanligini so‘raganda, Mudarris ularning aksariyati asl matn emas, balki “hoshiya” (sharhning sharhi) ekanligini aytadi: *“‘Hoshiya” shundayki... Mulla Jomiyning sharhig‘a bitilgan “hoshiya”lar: Abug‘afur, Asomiddin... Sayyid Sharif, Qul Ahmad...”*. Shunda Farangi an’anaviy ta’limning fojiasini tahlil qilib, quyidagi xulosani beradi:

"O'ttiz to'qqiz yillik qimmatli va aziz umrni... puch va bema'ni tahqiqotning tadrisig'a mashg'ul bo'ldilar, ammo tahsili vojib bo'lgan Tafsir, Hadis, Fiqh, Usuli fiqhni o'rganish vaqti qachon keladi va yana bu yigirma yilda Nahv, Mantiq, Aqoid, Hikmatdan o'qigan bo'lsalar ham, faqat ularning debochasi ekan... Siz yigirma yil arabcha tahsildan keyin ham hanuz u tilda takallum qilishga ojizsiz" [16, 56-61-b.].

Abdurauf Fitratning ushbu asaridagi faktologik dalillar shuni ilmiy tasdiqlaydiki, an'anaviy ta'limning tanazzuli islom dinining o'zida emas, balki ta'limning ijtimoiy amaliyotdan mutlaqo uzilganligi, o'ta tor sxolastik munozaralarga (masalan, Mudarris aytganidek, *"Hamdning alifi lomi nimadir? Va rottabtuhu zamirining o'rni qayerda?"* kabi tortishuvlarga) yillab o'ralashib qolganida edi. Bolani kundalik hayotga, bozor iqtisodiyotiga, yozma muloqotga tayyorlamaydigan bu "abstrakt" tizimdan voz kechib, ta'limni jamiyatning real pragmatik ehtiyojlariga moslashtirish tarixiy zaruratga aylangan edi.

Jadid maktablarining o'quv-uslubiy evolyutsiyasi faqatgina kitoblar mazmunida emas, balki bevosita sinfxonaning moddiy-texnik jihozlanishida, ta'lim ergonomikasida namoyon bo'ldi. An'anaviy maktabxonalarda o'quvchilar yerda qalin to'shaklar (ko'rpachalar) ustida o'tirib, tizzalariga kitob qo'yib ta'lim olishgan. Bu usul matnni mutolaa qilish uchun qulay bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida muntazam va tezkor yozuv malakasini shakllantirish, geometrik chizmalar chizish va aniq fanlarni o'zlashtirish imkonini bermas edi.

Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi ekspozitsiyasida saqlanayotgan, jadidlar tomonidan maxsus ishlangan ikki kishilik yog'och parta namunasi (Inv. P-2024/1) shunchaki mebel qoldig'i emas, balki aniq tibbiy-gigiyenik va pedagogik maqsadga xizmat qilgan didaktik vositadir. Partaning qiya yuzasi va o'rindiqning orqa suyanchig'i bolaning qomatini to'g'ri saqlash (skoliozning oldini olish) hamda ko'z va daftar orasidagi masofani me'yorda ushlab turish kabi ergonomik talablarga to'liq javob bergan. Bu o'quvchini yozma nutq va analitik amaliyotga jismonan moslashtirish yo'lidagi inqilobiy islohot edi.

Ta'lim jarayonini faollashtirishda muzeydagi yana bir noyob eksponat – grammofon (Inv. G-2024/2) alohida ilmiy qimmatga ega. Ushbu texnika vositasining maktabga kiritilishi ba'zi manbalarda yanglishib faqat ko'ngilochar maqsadlarda talqin qilinadi. Vaholanki, pedagogika fanlari doktori, professor Ulug'bek Dolimov o'zining "Milliy uyg'onish pedagogikasi" asarida va "Ifodali o'qish metodining asoschisi" nomli ilmiy maqolasida grammofondan to'g'ridan-to'g'ri kognitiv-ta'limiy maqsadlarda foydalanish tarixini asoslab beradi. Olimning ta'kidlashicha, *"Hur fikrlar bilan ma'rifat maydoniga chiqqan bu pedagog o'z darsliklarida ifodali o'qishning elementar shakllari bilangina cheklanib qolmay... ifodali o'qish darslarining yangi shakllarini ishlab chiqqan"* [17, 24-b.].

Tarixiy manbalar va U.Dolimov tadqiqotlariga ko'ra, 1910-1911 yillarda Riga shahridagi "Grammofon" jamiyati vakillari Markaziy Osiyo shaharlariga kelib, o'zbek, qozoq, tojik xalqlari orasidagi mashhur hofizlarning kuy-qo'shiqlari va maqomlarini plastinkaga yozib olganlar. Shu jumladan, mashhur san'atkor Mulla To'ychi Toshmuhamedov (1868-1943) ijro etgan asarlar ham yozib olingan. Pedagog Abdulla Avloniy ushbu texnik vositadan maktabda g'oyat unumli foydalangan. U "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" darslik-majmuasidagi "Maktabga targ'ib" she'rini maxsus kuyga solgan va o'quvchilarga xor (jamoa) bo'lib kuylashga o'rgatgan. 1911-yilda ushbu bolalar xori Mulla To'ychi ishtirokida plastinkaga yozdirilgan. Unda she'rning to'rt misrasi ikki o'quvchi tomonidan, naqorat esa

bir necha o‘quvchilar tomonidan xor bo‘lib kuylangan:

Ikki o‘quvchi:
Oqil qoshida, millat boshida
Nurlar sochub, yashnab turgan
maktab emasmi?
Ilmu hunarlar, gullar chamanlar
Yoshlar uchun ochib turgan maktab emasmi?
Xor:
O‘qusun yoshlarimiz, bid’atni tashlarmiz,
Ketsun g‘aflat! Kelsun himmat! Yashasun millat! [17, 24-25-b.].

Ushbu “Maktabga targ‘ib” xori yozilgan noyob plastinka nusxasi orqali A.Avloniy o‘z o‘quvchilariga eshitish orqali idrok etish (audirovanie), to‘g‘ri talaffuz (diksiya) va estetik his-tuyg‘ularni o‘rgatgan. Qolaversa, 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi mashhur “Kolizey” teatrida M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi A. Avloniy va Munavvarqori rahbarligidagi “Turon” truppasi tomonidan sahnaga qo‘yilganda, tanaffus paytida Avloniyning o‘quvchilari xuddi shu “Maktabga targ‘ib” xorini tomoshabinlar oldida ijro etganlar [17, 25-b.]. Bu esa jadid maktablarida o‘quvchi shaxsini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish, sahnada o‘zini tutish va nutq madaniyatini shakllantirish yo‘lidagi pragmatik siljishni tasdiqlaydi.

Jadid pedagogikasida o‘quv-uslubiy jarayonlar aniq mezonlar (mazmun, metod, amaliy topshiriqlar) asosida tizimli transformatsiyaga uchradi. Buni arxivdagi noyob darsliklarni tahlil qilish orqali dalillash mumkin.

a) Metod va kognitiv yondashuv o‘zgarishi. An’anaviy ta’limdagi “usuli tahajji” (harflarni alohida-alohida, masalan, *alif, be, te, se* shaklida nomlab yodlatish) o‘quvchining matn mazmunini anglashini va so‘zlarni mantiqan biriktirishini sun’iy ravishda ortga surar edi. Bunga muqobil ravishda Ismoil Gasprinskiy tomonidan tatbiq etilgan “usuli savtiya” (tovush metodi) bolaga harfni bevosita tovush sifatida qabul qilish va ularni tezlik bilan so‘zga aylantirish imkonini berdi.

O‘zbek davlat ilmiy sho‘rosi tomonidan tasdiqlangan, Shokirjon Rahimiy qalamiga mansub “Savod” (1930-yildagi 5-bosma, Inv. VR 657) darsligi kognitiv yondashuvning mukammal namunasidir. Darslik matnini tahlil qilar ekanmiz, unda fonetika va vizuallik qat’iy uyg‘unlashtirilganini ko‘ramiz. Har bir tovush kundalik ro‘zg‘or buyumlari, hayvonot olami yoki inson anatomiyasi rasmlari bilan assotsiatsiya qilingan (masalan, barmoqlar sonini ko‘rsatib, rasm orqali qisqa gaplar tuzish: *“Bir, ikki, o‘n olti... o‘n olti deb kim aytdi?”* [21, 65-b.]). O‘quvchi mexanik yodlashdan voz kechib, atrof-muhitni kuzatish, qiyoslash va mantiqiy bog‘lash orqali savod chiqargan.

b) O‘quv mazmuni: Sof milliy grammatikaning yaratilishi. Til qoidalarini o‘rgatishda yuz bergan eng yirik ilmiy-metodologik inqilob ulug‘ alloma Abdurauf Fitratning 1920-yillarda yaratilgan “Sarf” (Morfologiya, 1927-yil, 5-nashr) va “Nahv” (Sintaksis, 1930-yil, 4-nashr) asarlari bilan bog‘liqdir.

Tarixan ma’lumki, jadidlargacha bo‘lgan an’anaviy tizimda turkiy til grammatikasi butunlay arab va fors tillarining morfologik qoliplari (“ism, fe’l, harf”) asosida, g‘ayritabiiy ravishda o‘qitilgan. O‘quvchilar turkiy til qonuniyatlarini tushunmas edilar. Fitrat “Sarf” va “Nahv” asarlarida bu begona istilohlarni mutlaqo rad etib, o‘zbek tilshunosligi tarixida birinchi marta *“ot”, “sifat”, “son”, “olmash”, “kesim”, “ega”* va *“to‘ldirg‘ich”* kabi sof milliy lingvistik atamalarni ilmiy hamda o‘quv muomalasiga kiritdi.

Fitrat “Nahv” darsligining muqaddimasida o‘z islohotini shunday ilmiy asoslaydi:

“Biz til qoidalari ham uning atamalari to‘g‘risida ishlashning hali birinchi paytida yashaymiz... Tilimizning butun qoidalarini aniqlash, atamalarini maydonga qo‘ymaq

uchun yana bir oz tirishmog'imiz... lazim". Shuningdek, gap (sintaksis) bo'limini ta'riflarkan: *""Men kitob oldim" deganda gapimiz uch so'zdan yasalgan... Bir fikr, bir o'yni anglatuvchi so'z to'plami bir "gap" bo'ladir"* [23, 4-6-b.] deya sodda va teran qoida beradi.

Eng muhimi, Fitrat darsliklaridagi mashqlar va sintaktik tahlil uchun misollar Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur asarlaridan tortib, Cho'lpon, Botu, Elbek kabi zamondosh shoirlarning jonli matnlaridan iborat bo'lib, o'quvchi tilni shunchaki quruq qoida sifatida emas, balki real badiiy-kommunikativ vosita sifatida anglashiga xizmat qilgan.

Jon Dyui falsafasiga asoslangan "Pragmatik ta'lim" tamoyili jadid maktablarida o'quvchiga berilayotgan nazariy bilimlarning bevosita uning kelajakdagi kasbiy faoliyati, moliyaviy savodxonligi va yuridik munosabatlarida qanday amaliy foyda keltirishi bilan o'lchangan. An'anaviy madrasani bitirgan yoshlar o'z davrining tez o'sib borayotgan kapitalistik bozor munosabatlariga mutlaqo moslasha olmas, tijorat xatlarini yozish yoki bank hisob-kitobini yuritish u yoqda tursin, oddiy ariza yozishni ham bilmas edilar.

Ijtimoiy-huquqiy pragmatizm: Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" (Samarqand, 1914) qo'llanmasi o'quvchilarni bevosita ijtimoiy kommunikatsiyaga tayyorlagan innovatsion darslik bo'ldi. Asarning didaktik yangiligi shunda ediki, unda turkiy tilda birinchi marta "Rumuzlar" (tinish belgilari – nuqta, so'roq, qavs, ikki nuqta, tenglik) qoidalari tizimli o'qitildi. Eng muhimi, asarda amaliy topshiriqlar sifatida kundalik maishiy va rasmiy yozishmalar: ariza, ishonchnoma (veksel), kafilnoma, tilxat, taklifnoma yozish nusxalari taqdim etildi. Bu yoshlarni mustamlaka byurokratik jarayonlarida o'z iqtisodiy-huquqiy manfaatlarini mustaqil va yozma ravishda himoya qilishga (ish yuritishga) tayyorlagan chinakam yuridik-pragmatik yondashuv edi.

Iqtisodiy-moliyaviy pragmatizm: Aniq fanlarni o'qitishda pragmatizm yanada yaqqol namoyon bo'ldi. V.M.Ilin matbaasida chop etilgan Xolid Sa'idning "Rahbari hisob" (Arifmetika, Toshkent, 1914-1915, Inv. VR 35) darsligi bu borada inqilobiy ahamiyatga ega. Darslik muqaddimasida muallif: *"Tashnai zuloli ma'rifat o'lan avlodi vatana bir xizmati nochizona o'lmaq o'zra tartib berilmish o'shbu risolayi ojizonamizg'a hisobning a'moli arbasig'a mutaalliq eng muhim qoidalari darj etilmishdur"* deya maqsadni aniq belgilaydi [25, 2-b.].

Matematik amallar mavhum raqamlar orqali emas, balki qadoq, botmon, pud, misqol, arshin, chaqirim kabi real o'lchovlar hamda so'm, tiyin, rubl, tanga kabi pul birliklari vositasida o'qitilgan. Masalan, asardagi masalalarga e'tibor qiling:

Masala: "Bir kishining 100 so'm aqchasi bor edi. Shul aqchasig'a 2 yerdan mol olg'an. Birinchi do'kondan 12 so'mliq mol olg'an, 2-chisindan birinchiga qarag'anda 35 so'mlik ortiq olg'an. Necha so'm aqchasi qolur?" [20, 30-b.].

Masala: "Bir savdogar 8 so'mdan 27 chetvert arpa sotqan. Shul pulga bir ot arpa olg'andan keyin 75 so'm puli qolg'an. Ot arpadan 3 qatla qimmat...?" [20, 59-b.].

Bozor va kapitalistik bank munosabatlari jadallashib borayotgan bir sharoitda, yoshlarga zamonaviy moliya asoslarini o'rgatish maqsadida darslikda "Iskonto" (Eskonto – bank foizi, chegirma) bo'limi kiritilgan:

"Zamonamizda tijorat arosida... moli olinqon vaqt... fabikada qo'shilqon narx (eskonto) bilan baholashur... Bir miqdor pulning bir yillik ijarasini bilmak uchun ijara miqdorini mablag'g'a zarb qilib... " [25, 68-71-b.].

O'quvchiga foiz hisoblash, sof foyda (xolis pul) va zararni aniqlash, valyutalarni bir-biriga aylantirish (masalan: *"8384 tanga Buxoro qancha so'm bo'lur?"* [25, 73-b.]) maktab partasidayoq o'rgatilgan. Bu o'quvchilarni bevosita

kapitalistik tijorat amaliyotiga tayyorlagan oliy darajadagi pragmatizmdir.

Empirik dunyoqarash va tabiiy fanlar: Borliqni mantiqiy anglash yo‘lida ham izchil o‘quv-uslubiy evolyutsiya yuz berdi. Bolalarning fazoviy tasavvurlari teologik xurofotlar (“Yerning ho‘kiz shoxi ustida turishi” kabi afsonalar) bilan cheklanib qolmasligi uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy “Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy” (1905) asarini yozib, unda Yerni shar shaklida ekanligi, globus, kompas va qit’alar tasvirlarini berdi. Asarda: *“Ahli hay’ati jadida... aytadurki, Oftob dunyoni o‘rtasig‘a xalq bo‘lubdurki... Yerimiz Oftobg‘a nisbatan uchlanchi sayyora - yurguvchi yulduzdur!”* deya geliotsentrik nazariya qat’iy himoya qilingan [22, 21-b.]. Shuningdek, V.Lunkevichning qozon tatar tilidan o‘zlashtirilgan “Bir tomchi suvda tiriklik” (1910. Inv. K-1910-137/7) asarining darslik sifatida qabul qilinishi bolalarni mikroskopik hayot bilan tanishtirib, olamni faqat ko‘zga ko‘rinadigan narsalar bilangina o‘lchamaslikni, balki ilmiy obektiv-empirik tahlil qilishni o‘rgatdi.

Tadqiqotning metodologik xolisligini ta’minlash maqsadida 1900-1917-yillardagi milliy jadid ta’limi va 1920-1930-yillardagi sovetlashtirish davri o‘rtasidagi chegaralarni qat’iy farqlash talab etiladi. Bu davrlarni bir butun uzluksiz pedagogik jarayon sifatida ko‘rish yuzaki yondashuvdir.

1917-yilgacha bo‘lgan davrda darsliklar (masalan, M. Behbudiyning jug‘rofiyasi, Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Xolid Sa’idning “Hisob” asarlari) erkin bozor munosabatlari, milliy burjuaziya ehtiyojlari, milliy o‘zlikni anglash va islomiy-axloqiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida erkin yozilgan edi.

Biroq, 1920-yillardan boshlab, bolsheviklar hokimiyati mustahkamlangach, ta’lim muassasalari to‘liq qat’iy davlat monopoliyasiga o‘tdi. Muzey fondidagi 1920-30 yillarga oid darsliklar (masalan, I.Islom va M.Odilning “Hisob masalalari”, 1929) va boshqa o‘quv qo‘llanmalarida g‘oyaviy urg‘u keskin o‘zgardi. Masalalar endi xususiy savdo emas, balki kolxozlashtirish, quloqlashtirish, sinfiy kurash va majburiy zavod mehnatiga (politexnizatsiyaga) yo‘naltirila boshladi. O‘qish kitoblariga “Pionerlar ahdi”, “Lenin burchagi” kabi mafkuraviy matnlar kiritildi (masalan, Sh.Rahimiyning “Savod” asaridagi *“Maktabda Lenin burchagi tuzdik... Yoshlar tashkiloti yonida: Mopr, Avyaxim va Xudasizlar uyushmalari bar”* [21, 38-72-b.] qabilidagi siyosiylashgan matnlar shundan dalolat beradi). Bunga qadar erkin tafakkur maydoni bo‘lgan maktab, endilikda bevosita sovet davlatining besh yillik iqtisodiy rejalari va ateistik mafkurasini amalga oshiruvchi konveyerga aylantirildi.

Shunga qaramay, haqiqiy ma’rifatparvar olimlar (A. Fitrat, Sh. Rahimiy, Y.D. Polivanov va boshqalar) kuchli sovet mafkuraviy iskanjasida turib bo‘lsa-da, o‘zbek tilining sof milliy grammatikasini saqlab qolish, fonetikasini takomillashtirish orqali ta’limning ilmiy-metodologik bazasini mustahkamlashga qaramonona muvaffaq bo‘ldilar. Bu dalillar shuni ko‘rsatadiki, 1920-1930 yillarda jadid ta’limi yo‘q bo‘lib ketmadi, balki qat’iy mafkuraviy bosim va senzuraga qaramay, sof ilm-fanni saqlab qolish yo‘lida murakkab transformatsiyaga yuz tutdi.

Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi ashyolari va asl darslik matnlarini ilmiy-qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi qat’iy xulosalarga kelindi:

Turkiston jadid maktablarida yuz bergan o‘quv-uslubiy evolyutsiya shunchaki kitoblarning almashtirilishi emas, balki xalq tafakkuridagi fundamental kognitiv sakrash edi. An’anaviy ta’limdagi mavhum sxolastika (A.Fitratning “Munozara” asarida fosh etilganidek) “usuli savtiya”ning joriy etilishi hamda milliy lingvistik qoidalarning (Fitratning “Sarf” va “Nahv” asarlari) yaratilishi orqali yakun top-

di. Bu holat o‘quvchini matnni tushunmasdan mexanik yodlash qulligidan qutqarib, unga ongli, mantiqiy-analitik mutolaa qobiliyatini berdi.

Jadid maktablarida ta'lim maqsadli ravishda pragmatiklashtirildi. Xolid Sa'id, Qori Shavkat, M. Behbudiy kabi mualliflarning darsliklari o‘quvchilarni abstrakt diniy-falsafiy tushunchalar bilan emas, balki real bozor o‘lchovlari, tijorat hisob-kitoblari (buxgalteriya), jo‘g‘rofiy empirizm va rasmiy ish yuritish ko‘nikmalari bilan qurollantirib, ularni jamiyatdagi kapitalistik sharoitga va raqobat muhitiga bevosita amaliy jihatdan tayyorlagan.

Muzeydagi moddiy-didaktik ashyolar (maxsus o‘quv partalari, grammofonlar) ta'limda gigiyenik va ergonomik standartlarning o‘rnatilganini, shuningdek, U.Dolimov tadqiqotlarida isbotlanganidek, o‘quvchining fonetik va estetik (ifodali o‘qish, xor) qobiliyatlarini ilg‘or audio-vizual usullar orqali o‘stirish amaliyoti mavjud bo‘lganini obektiv dalillaydi.

Mazkur maqolada keltirilgan xulosalar asosan Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyida saqlanayotgan muayyan moddiy ashyolar, shuningdek, Toshkent va Samarqand muhitida nashr etilgan ayrim darsliklar (Fitrat, Sa'id, Rahimiy, Behbudiy) tahlili doirasi bilan cheklangan. Ular Buxoro amirligi, Xiva xonligi yoki Farg‘ona vodiysining olis hududlaridagi barcha usuli jadid maktablarining to‘liq o‘quv-uslubiy manzarasini unifikatsiya qilmasligi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda boshqa mahalliy arxiv fondlaridagi o‘quv materiallari, bitiruvchilarning xotiralari va chor politsiyasi xabarnomalarini keng qiyosiy o‘rganish masalaning ijtimoiy-siyosiy va mintaqaviy qamrovini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дьюи Дж. Демократия и образование. – Москва: Педагогика, 2000. – С. 45-48.
2. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 112-115.
3. Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi fodi materiallari. O‘quv partasi va grammofon tavsifnomasi. Inv. P-2024/1, G-2024/2.
4. Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. – Toshkent: Noshir, 2012. – B. 7-10.
5. Dolimov U. Ifodali o‘qish metodining asoschisi // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – 2006. – №2. – B. 24-25.
6. Abdurauf Fitrat. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf (Birinchi kitob, 5-nashr). – Samarqand-Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1927.
7. Abdurauf Fitrat. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Nahv (Ikkinchi kitob, 4-nashr). – Samarqand-Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1930. (Inv. K-1930/154). – B. 4-6.
8. Xolid Sa'id. Hisob. 1-qism. (Arifmetika). – Toshkent: V.M. Ilyin matbaasi, 1914. (Inv. VR 36). – B. 30-59.
9. Xolid Sa'id. Hisob. 2-qism. – Toshkent: V.M. Ilyin matbaasi, 1919. (Inv. VR 35). – B. 68-73.
10. Shokirjon Rahimiy. Savod (Alifbe) (5-bosma). – Samarqand-Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1930. (Inv. VR 657). – B. 38-72.
11. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy // Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B. 20-22.
12. Abdurauf Fitrat. Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi // Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 55-61.
13. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Kitobat ul-atfol. – Samarqand, 1914.
14. Qori Shavkat. Yangi usuli daftari: Muomaloti tijoriya darslari. – Istanbul, 1917-1918.
15. I.Islom, Qahhor, M.Odil. Hisob masalalari. – Toshkent-Samarqand: O‘zdavnashr, 1929.